

**PSIXIK HUSUSIYATLAR**

*Siddiqova Iroda Sotvoldiyevna*

*Farg‘ona viloyati Oltiariq tuman*

*23-umumta’lim maktabi psixologи*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada psixik jarayonlar, psixik xususiyatlar, psixik muammolar to‘g‘risida muloxaza yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** psixika, sezgi, bilish, idrok, psixik qarashlar

Bilish jarayonlariga - sezgi, idrok, tasavvur, xotira, hayol, tafakkur va nutq kiradi. Ular bilimlarni egallash, muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Hissiy jarayonlar - insonning ichki dunyosini aks ettiradi, tevarak atrofda ro‘y berayotgan hodisalarining ehtiyojlar va maqsadlarga mos o‘z-o‘zini boshqarishda, o‘z xulq-atvorini ongli boshqarishda ko‘rinadi.

Psixik holatlar psixikaning vaqtinchalik holati bo‘lib, o‘ziga ishonish, tayyorlik, qoniqish, ikkilanish, amaliy harakatdagi muvaffaqiyat shularga bog‘liq bo‘ladi. Psixik xususiyatlarga yo‘naltirilganlik, xarakter, temperament va qobiliyatlar kiradi. Yo‘naltirilganlik shaxs xususiyati bo‘lib - maqsadga intilishdir. Yo‘naltirilganlik asosi - ehtiyojlar, qiziqishlar, layoqatlar, ideallar, dunyoqarashdir. Psixik xususiyatlarga qarab, insonning individual xususiyatlari haqida bilish mumkin. Individual psixika bilan birgalikda insonlarning jamoa va guruhlarida vujudga keladigan ijtimoiy psixologik hodisalar ham mavjud. Ularga an‘analar, baholar, qiziqishlar, urf-odatlar kiradi.

Ijtimoiy psixologik hodisalar oliy o‘quv yurti hayotida, talabalar ta‘lim va tarbiyasi masalalarini hal qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Oliy mакtab psixologiyasi predmeti - oliy o‘quv yurti sharoitida vujudga keladigan individual va ijtimoiy psixologik hodisalar hisoblanadi. Oliy mакtab psixologiyasi psixik jarayonlar, holatlar, xususiyatlar, tajribaning o‘rnii va rolini, oliy o‘quv yurti rahbarlari, o‘qituvchilar va talabalari faoliyatida ularning ko‘rinishi va rivojlanishini o‘rganadi. Oliy mакtab psixologiyasi psixologiyaning nisbatan yangi tarmoqlaridan biridir. U pedagogik, ijtimoiy va yosh psixologiyasi, mehnat psixologiyasi va boshqa fanlarning yutuqlarini birlashtiradi. O‘zining asosiy mazmuniga ko‘ra, u oliy o‘quv yurtining pedagogik psixologiyasi hisoblanadi.

Metodologiya - borliqni o‘zgartirish va bilish metodlari haqidagi, bilish va tajriba jarayonlariga dunyoqarash tamoyillarini qo‘llash haqidagi ta‘limotdir. Oliy mакtabdagi psixologik tadqiqotlar metodologiyasini dialektik materializm qonunlari va psixologiya fanini psixikaning mohiyati, ong va faoliyat birligi haqidagi, oliy mакtabdagi ta‘lim va tarbiya sharoitida psixik hodisalarini o‘rganish jarayoniga umumiyl talablar tashkil qiladi.

Oliy mакtab psixologiyasi metodlari - rahbar o‘qituvchilar, talabalar, faoliyatining psixik xususiyatlarini o‘rganish usulidir. Oliy mакtab psixologiyasining muhim metodlari kuzatish va eksperimentdir. Kuzatish metodining obyekti o‘qituvchilar va talabalar xatti - harakatlarini kuzatish hisoblanadi. Eksperiment metodi kuzatish metodiga qaraganda faolroq: a/ laboratoriya eksperimenti, b/ tabiiy eksperiment.

Suhbat - kuzatish va eksperimentni to‘ldiradi. Suhbatiing muffaqiyati tadqiqotchiga ishonch, qulay psixologik iqlim yaratish hisoblanadi. O‘qituvchi va talabalar faoliyatini tahlil qilish metodi talabalar haqida muhim ma‘lumotlar beradi. Test metodi - talabalar qobiliyatini, intilish darajasini va boshqalarni aniqlash imkonini beradi. So‘rov va anketa metodi talabalarning turli hodisalarga munosabatini, fikrini o‘rganish imkonini beradi.

Oliy maktab psixologiyasida tajribali o‘qituvchilar fikrlaridan ham foydalaniladi. Psixolog tadqiqotlarda elektroensefalografiya metodi, miya biotoklarini yozib olish, talabalar holati va psixologik jarayonlarining obyektiv nazorat qilish uchun qo‘llaniladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

- 1.Davletshin M.G., Do’stmuxamedova Sh.A., Mavlonov M.M,To’ychieva S.M., «Yosh va pedagogik psixologiya». T. TDPU, 2004
- 2.Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiyl psixologiya”. T.: 2009.
- 3.Yugay A.X. Laboratorno-prakticheskie zanyatiya po psixologii. T.: TDPU, 2008.